

BOLALARNING RIVOJLANISH MUHITIDA O‘YINNING O‘RNI

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna

FarDU dotsenti

Ergasheva Soliha Bonu Boqijon qizi

FarDU magistri

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘yinlarning bolalarning rivojlanishiga ta’siri, bolalarga erta ta’lim berishda o‘yining ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, individual xususiyatlar, moddiy-fazoviy rivojlanish.

Zamonaviy dunyoda yashayotgan va o‘sib borayotgan bolalarda tez o‘zgaruvchanlik mavjudligi bilan birga bolalarning ta’limga bo‘lgan qarashlari ham o‘zgarib bormoqda. Ta’limga bola tug‘ilgandan boshlab butun umrlik jarayon sifatida qarash ta’lim jarayonini tashkil etishning moslashuvchan standartlarini qabul qilishni talab qiladi. Bolalar ta’lim muassasalarida ko‘p vaqt o‘tkazadilar, bu esa bolalarning bolaligini uyg‘un, do‘stona, rivojlangan, inklyuziv,adolatli muhitda, madaniy va etnik xilma-xillik hurmat qilinadigan muhitda o‘tkazishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish muhimligini tushunishga olib keladi.

Bola dunyo haqidagi o‘z tushunchasini shakllantirish huquqiga ega tadqiqotning faol ishtirokchisi sifatida qabul qilinishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi davr - maktabga tayyorgarlik bosqichi, bolaning hayotiy qobiliyatlarini rivojlantirish davridir. Shuning uchun bola hayotida maktabgacha ta’lim va tarbiya uslubi uyushtirilgan ta’lim faoliyatidan bolaning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda har bir bolaning salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish uchun sharoit yaratishga o‘zgarishi kerak. Bu nafaqat pedagog tomonidan rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish, balki bolaning qiziqishiga e’tibor berish va u tanlagan faoliyat turiga ko‘ra kunni tashkil qilish uchun juda muhimdir.

Birgalikda o‘ynash, mehnat qilish malakalarini o‘rganish, tozalik, tartiblilik, tashkilotchilik, fikrlash, idrok etish, rasm chizish va boshqa ko‘nikmalarni o‘yin shaklida amalga oshirish kerak. O‘yin bolaning asosiy faoliyati va rivojlanishning asosiy vositasidir [1].

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘yin muhim

rol o‘ynaydi, shuning uchun bu ish dolzarbdir. O‘yin qimmatli faoliyat bo‘lib, o‘yin orqali bolalarning kognitiv sohasi kengayadi, ular jamiyatdagi xatti-harakatlar normalari va qoidalarini o‘rganadilar. Pedagog-tarbiyachi bolalar faoliyatining turlari orqali bolalarni tarbiyalash jarayonida o‘yindan asosiy faoliyat sifatida foydalanadi.

O‘yin davomida bola o‘zi qila olmaydigan narsalarni o‘rganishga harakat qiladi, tengdoshlari bilan muloqot qiladi, bolada axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi. L. S. Vygotskiy, O. M. Dyachenko, E. E. Kravtsovaning fikricha, o‘yinni boshqa faoliyat turlari bilan almashtirish mактабгача yoshdagi bolalarning tasavvurini rivojlantirishga to‘sinqilik qiladi. V. V. Vetrova, M. I. Lisina, E. O. Smirnova L. M. Klarina, V. I. Loginova, N. N. Poddyakov o‘yinni boshqa faoliyat turlari bilan almashtirish bolaning tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini rivojlanishiga to‘sinqilik qiladi va uning hissiy holatini pasaytiradi, deb hisoblaydi. Shuning uchun, har kuni o‘yin faoliyatini tashkil qilish bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Rivojlanish muhitida turli xil materiallar bo‘lishi kerak: jismoniy muhitning turli komponentlari, masalan, bolalar mebellari, matraslar, yumshoq modullar, pardalar va boshqalar, bolalar bog‘chasida yoki guruhda ishlatalidigan ko‘p funktsiyali moddalar, shu jumladan bolalar faoliyatining har xil turlarida foydalanish uchun mos tabiiy materiallar (o‘yinlarda o‘rnbosar sifatida) mavjudligi asosidir.

Ulardan uyg‘un foydalanish bolalarga o‘yinda o‘z g‘oyalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Moddiy-fazoviy rivojlanish muhitining jihozlari bolalarning yosh xususiyatlariga va namunaviy o‘quv dasturining mazmuniga mos kelishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Юлдашева Д.М. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. cyberleninka.ru
2. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зохидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2
3. D.Yuldasheva. Anthropocentric approach to children’s speech study. Конференции.
4. Ю.Д Махамадалиевна. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 12 (Ulrich’s ...
5. YD Maxamadaliyevna, M Matmusaeva. On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171

YD Maxamadalievna, MX Madaminovna. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11

8. Maxamadalievna, Y. D., & Madaminovna, M. H. (2022). GNOSEOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCH OF ISSUES OF TEACHING SCHOOLCHILDREN TO STATEMENT AND SOLVING PROBLEMS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 35–39. Retrieved from <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/65>

8. YD Maxamadalievna. USE OF PRESIDENTIAL NAMES IN UZBEK CHILDREN'S TEXTS. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70

9. D Yuldasheva, S Umarova . MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA O 'YINLAR TEKNOLOGIYASI. Scientific progress 3 (2), 746-751

10. DM Юлдашева. Синтаксик тақрорларнинг бадий-эстетик имкониятлари. Международный журнал/ Искусство слова.

11. DM Yuldasheva, MA Ermatova. PROFESSOR A. MAMAJONOV-USLUBSHUNOS OLIM. Educational Research in Universal Sciences. 2023/8/28.

12. DM Yuldasheva, ZI Usmonova. MUALLIF NUTQI AGNONIMLARI (Siddiq Mo'min ijodida misolida) Educational Research in Universal Sciences. 2023/8/28.

13. D Yuldasheva, N Nabieva. Anthropocentric analysis of the "Wolf" zoomorphic metaphor in children's folklore. Scientific journal of the Fergana State University.